

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 27 140,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. YAHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,5 foiz, (YAHM tarkibidagi ulushi 51,9 foiz), sanoat – 107,8 foiz (13,1 foiz), qurilish – 106,5 foiz (5,6 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 110,2 foiz (5,7 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 108,9 foiz (3,5 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 103,2 foiz (20,2 foiz)ni tashkil qildi.



2022 yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Tashish va saqlash, axborot va aloqa




Boshqa xizmat tarmoqlari



YAHM deflyator indeksi 2022 yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,4 foizni tashkil etdi.

(foizda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 596,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 foizga o'sdi.



2022 yilning yanvar-dekabrda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM, ming so'm

2021 yil yanvar-dekabr

16 309,9



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM, o'sish sur'ati

105,4 %

2022 yil yanvar-dekabr

18 596,0

102,4 %



2022 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHMning ishlab chiqarish usuli bilan hisoblangan tarkibi

	Mrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021 yil	2022 yil	
I. YAHM	23 274,3	27 140,8	104,7
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 720,1	26 428,5	104,7
 Mahsulotlarga sof soliqlar	554,2	712,3	106,1
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 720,1	26 428,5	104,7
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 146,5	13 719,0	103,5
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 099,9	4 961,6	107,3
 sanoat	2 764,6	3 473,8	107,8
 qurilish	1 335,3	1 487,8	106,5
Xizmatlar	6 473,7	7 747,9	105,2
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 211,2	1 504,8	110,2
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	802,2	919,0	108,9
 boshqa xizmat tarmoqlari	4 460,3	5 324,1	103,2

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.



2022 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



		2021 yil	2022 yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,6	97,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,4	2,6
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	53,5	51,9
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18,1	18,7
	sanoat	12,2	13,1
	qurilish	5,9	5,6
	Xizmatlar	28,4	29,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,3	5,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,5	3,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,6	20,2

2022 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,4 foizni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,6 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 51,9 foizni, sanoat tarmogʻi 13,1 foizni, qurilish 5,6 foizni va xizmatlar sohasi 29,4 foizni tashkil qildi.



**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi
yanvar-dekabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)**



● Yalpi qoʻshilgan qiymat



● Mahsulotlarga sof soliqlar



**Xizmatlar sohasining yalpi qoʻshilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**


2021 yil yanvar-dekabr

2022 yil yanvar-dekabr



- Savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat koʻrsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarning YAHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2022 yil yanvar-dekabr oylarida – 5,7 foizni (2021 yil yanvar –dekabrda – 5,3 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,5 foizni (3,5 foiz), xizmat koʻrsatuvchi boshqa tarmoqlar – 20,2 foizni (19,6 foiz) tashkil etdi.



**2022 yil yanvar-dekabrda kichik biznesning YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan foizda)**

2022 yil yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 78,4 foizni tashkil qildi (2021 yil yanvar-dekabrda – 80,1 foiz).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻli.

2021 yil yanvar-dekabr

80,1 %

2022 yil yanvar-dekabr

78,4 %